



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

MAVZU: ONA TILI DARSLARIDA DAKTIL NUTQINING AHAMIYATI

Ibrohimova Zebuniso

Toshkent davlat pedagogika universiteti Surdopedagogika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ona tili darslarida daktik nutqning ahamiyati, uning o‘quvchilarning intellektual va kommunikativ rivojlanishiga ta’siri yoritib beriladi. Daktil nutqning ona tili darslarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdagi o‘rni va uning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, daktil nutqni shakllantirish va rivojlantirish usullarini ham o‘z ichiga olgan.

Kalit so‘zlar: Daktil nutqi, ta’lim jarayoni, savodga o‘rgatish, so‘zlashuv nutqi, nutqiy kompitentlik, yordamchi vosita.

Ta’lim jarayonida ona tili darslari o‘quvchilarning fikrlash, muloqot va ifoda qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu darslarda daktil nutqning qo‘llanilishi o‘quvchilarga til tuzilmalarini chuqurroq anglash, fikrlarni aniq va tushunarli tarzda bayon etish imkoniyatini beradi. Daktil nutqi – kar bolalarni o‘qitish vositalaridan biri, u lug‘at boyligi va natqni o‘zlashtirish sifatini, shuningdek kar bolalarning umumiyligi rivojlanish darajasini bir necha barobar oshirishi mumkin. Ayniqsa, ona tili darslarida bu usul ta’lim sifatini oshirishda beqiyos ahmiyatga ega. Ushbu nutq shaklidan foydalanish uchun asos daktil alifbosi sanaladi. Ushbu alifbo o‘zbek alifbosining har bir harfi bilan mos ravishda o‘z harakatli ifodasiga ega. Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin.

1. chizuvchi harflar (z, b, d);
2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
3. shartli belgilar (v, j, n).



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

Quyida o‘zbek tilining daktil alifbosi aks etgan.

A	B	D	E	F	G
H	I	J	K	L	M
N	O	P	Q	R	S
T	U	V	X	Y	Z
O'	G'	Sh	Ch		Ng

Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida daktil nutqni nafaqat bilim berish, balki tarbiyalash vositasi sifatida ham ko‘rsatgan. Daktil nutq bu - ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga ma’lumotni aniq va tushunarli yetkazish maqsadida ishlataladi. U nafaqat o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishini yengillashtiradi, balki ularni faol tinglovchi va suhbatdoshga aylantirishga yordam beradi. Daktil nutqi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita ham sanaladi. Daktil nutqini to‘la egallamaslik nutning tushunarligiga va talaffuz to‘g‘riligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘z navbatida savodga o‘rgatishning qiyinlashuviga olib keladi. Natijada o‘quvchida nutqiy kompitentlik pasayadi. Eshitish buzulganda nutqning rivojlanish darajasi bir xil bo‘lmaydi va quyidagi omillarga bog‘liqdir:

- Eshitishning buzilganlik darajasi;
- Eshitish analizatori nuqsonining yuzaga kelish vaqt;



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

- Eshitish analizatori faoliyati buzilganidan keyin bolaning qanday pedagogik sharoitlarda bo‘lgani;

- Bolaning individual xususiyatlari. Ushbu sanab o‘tilgan omillar nafaqat nutqning rivojlanishiga shuningdek, daktil nutqini o‘zlashtirish va qo‘llash jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Sergey Aleksandrovich Zikov daktil nutqiga so‘zlashuv nutqini o‘rganishning boshlang‘ich nutqi sifatida qaraydi va bu yondashuvni quyidagicha ta’kidlaydi:

1. Daktil nutq oson idrok etiladi, o‘quvchi so‘zning har bir elementini ko‘radi.

2. U to‘liq so‘zlovchi tomonidan boshqariladi. O‘quvchi o‘z nutqini o‘qituvchi bergen so‘z bilan moslashtirib, o‘zini tekshirishi mumkin.

3. Daktillashda barmoq kinesteziyasi (qo‘lning mushak hissi) shakllanadi, buning natijasida so‘zning tuzilishi tezroq va mustahkamroq esda qoladi.

4. Barmoqlar kinesteziyalari va artikulyatsion apparatlar kinesteziyalari o‘rtasida kuchli neyrodinamik aloqalar o‘rnataladi, buning natijasida daktil nutq og‘zaki nutqning tayanchiga aylanadi.

Daktil nutqi ko‘rib anglash jarayonini talab etadi. Ko‘rib anglash — bu insonning ko‘z orqali olingan ma’lumotni tushunishi va tahlil qilishi jarayonidir. Bu jarayon vizual qobiliyat va miyaning analiz qilish qobiliyatiga bog‘liq. Ko‘rib anglash ko‘nikmasini rivojlantirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

1. Diqqatni rivojlantirish:

- Har qanday vizual ma’lumotga diqqat bilan qarash va uni to‘liq tushunishga harakat qilish kerak.

- Diqqatli kuzatishning mashqlari, masalan, o‘yindagi aniqlik topish vazifalari yordam beradi.

2. Tushunchani kuchaytirish:

- Tasvirlar yoki grafikalar ma’nosini anglash uchun ularni tahlil qilish

3. Tasavvurni faollashtirish:

- Ko‘rib anglashni kuchaytirish uchun tasavvurdan foydalanish, ya’ni ko‘rgan narsalarni xotirada saqlash va qayta ishslash kerak.

4. O‘qish va grafikalardan foydalanish:

- Rasmlarni o‘qishni o‘rganish ko‘rib anglashni yanada samarali qiladi.

- Bu qobiliyat ta’limda va amaliy hayotda juda muhim.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

Daktil nutqini ona tili darslarida qo'llash yetishmayotgan eshitish nuqsonining o'rmini to'ldirishdir. O'qituvchi o'quvchiga murojat etganda grammatik qo'shimchalarni daktillash orqali ulardag'i so'zning bir-biriga qo'shilishi haqidagi bilimni ham taqdim etgan bo'ladi. O'quvchida so'zlarning qo'shimchalar orqali so'z birikmasi, gap, matnni hosil qilishi haqida ko'nikma hosil etilishi ulardag'i bog'langan nutqning shakllanishiga asos bo'ladi. Ona tili darslarining mazmuni ham bog'langan nutqni shakllantirish va uni muloqotda qo'llashdir.

Xulosa:

Xulosa qilib aytish, mumkinki, daktil nutq ta'lim jarayonida o'quvchilarning til ko'nikmalarini shakllantirish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning fikrlarini aniq ifoda etishiga xizmat qiladigan samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida daktil nutqni qo'llash o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirib, grammatik bilimlarini chuqurlashtiradi va nutqiy kompetentlikni oshiradi.

Shuningdek, daktil nutqi o'quvchilarni faol tinglovchi va suhbatdoshga aylantiradi, ularning o'qituvchilari bilan samarali o'zaro muloqot qilishiga zamin yaratadi. Bu usul nafaqat bilimni yetkazish, balki tarbiyalash vositasi sifatida ham foydalanilishi mumkin. Shu sababli, daktil nutq ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning qo'llanilishi ta'lim sifatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yarunicheva, I. A. Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarni talaffuz qilishni o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy ta'lim muammolari: xalqaro ilmiy-amaliykonferentsiya materiallari. - Penza; Yerevan; Praga:"Sotsiosfera" ilmiy-nashriyot markazi MCHJ, 2010. S.190194 (0,4 p.l.)
2. Mamarajabova Z.N.Ona tili o'qitish maxsus metodikasida pedagogik texnologiyalar -T.,2004
3. Коровин К. Г. Методические основы формирования личности слабослышащего школьника в учебном процессе // Дефектология. 2002. С.21-24.